



BANK MIJOZLARI KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAXOLASHNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Abdimuratov Batirbek Najmatdinovich

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti 2 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari va usullarini takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Maqolada kredit risklarini minimallashtirish maqsadida moliyaviy (likvidlik, rentabellik, daromad barqarorligi) va nomoliyaviy (kredit tarixi, ta'minot darajasi) ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan integratsiyalashgan modellarni takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kredit layoqatliligi, baholash ko'rsatkichlari, kredit risklari, integratsiyalashgan model, sun'iy intellekt, big data, skoring tizimi, O'zbekiston bank tizimi.

Аннотация: В данной научной статье исследуются вопросы совершенствования основных показателей и методов оценки кредитоспособности клиентов в коммерческих банках. В статье уделено внимание системному анализу финансовых (ликвидность, рентабельность, стабильность доходов) и нефинансовых (кредитная история, уровень обеспечения) показателей с целью минимизации кредитных рисков, оценке их эффективности, а также предложению интегрированных моделей, основанных на современных технологиях.

Ключевые слова: Коммерческие банки, кредитоспособность, показатели оценки, кредитные риски, интегрированная модель, искусственный интеллект, большие данные, скоринговая система, банковская система Узбекистана.

Abstract: This scientific article examines the issues of improving the main indicators and methods for assessing the creditworthiness of clients in commercial banks. The article focuses on the systematic analysis of financial (liquidity, profitability, income stability) and non-financial (credit history, collateral level) indicators aimed at minimizing credit risks, evaluating their effectiveness, and proposing integrated models based on modern technologies.

Keywords: Commercial banks, creditworthiness, assessment indicators, credit risks, integrated model, artificial intelligence, big data, scoring system, banking system of Uzbekistan.

KIRISH

Tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullarini takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda global ahamiyatga ega bo'lib, bank tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kredit risklarini minimallashtirish va



iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning kalit omillaridan biridir. 2025 yilga kelib, jahon bank sektori kredit portfellari hajmining keskin o'sishini kuzatmoqda: masalan, S&P Global Ratings ma'lumotlariga ko'ra, global banklarning kredit portfeli 2025 yilda 100 trillion AQSh dollaridan oshib, 2024 yilga nisbatan 8-10% ga o'sgan (S&P Global, 2025). Bu o'sish bilan birga, non-performing loans (NPL) ulushi o'rtacha 2-3% atrofida saqlanib, ba'zi mintaqalarda (jumladan, Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyoda) 5% gacha yetmoqda.

Bunday sharoitda, kreditga layoqatlilik baholashining samaradorligi nafaqat individual banklarning foydasiga, balki butun iqtisodiy tizimning barqarorligiga ta'sir etadi. Masalan, Moody's 2025 yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, AI va big data texnologiyalarini qo'llash orqali kredit risklarini baholash 15-20% ga yaxshilanishi mumkin, bu esa global bankrotlik holatlarini 10% ga kamaytirishga olib keladi (Moody's, 2025).

O'zbekiston miqyosida bu masalalar yanada dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil sentyabr holatiga ko'ra, respublika bank tizimining kredit portfeli 34,7 milliard AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu 2024 yilga nisbatan 7,8% o'sishni ko'rsatadi (CEIC Data, 2025).

Shu bilan birga, NPL ulushi 3,8% ga tushgan, ammo agrar sektor kabi muhim tarmoqlarda bu ko'rsatkich 4-5% atrofida saqlanmoqda (Uzbekistan Central Bank, 2025). "Agrobank" ATB kabi agrar yo'nalishdagi banklar uchun bu xavflarni oldindan aniqlash credit scoring tizimini yanada rivojlantirish mexanizmlarini korib chiqish muhim ahamiyatga ega, chunki 2020-2025 yillarda uning kredit portfeli 22,5 trillion so'mdan 68,7 trillion so'mga o'sgan, ammo NPL ulushi 4,5% dan 1,8% ga tushgan bo'lsada, iqlim o'zgarishlari ta'sirida risklar saqlanib qolmoqda (Agrobank investor presentation, 2025). Global miqyosda, Basel III va Basel IV standartlari (BIS, 2025) banklarni ichki reyting modellari (IRB) ni joriy etishga majbur qilmoqda, bu esa O'zbekiston banklari uchun xalqaro integratsiyani talab etadi.

Global ahamiyat nuqtayi nazaridan, bu tadqiqot Markaziy Osiyo mintaqasi uchun namuna bo'lishi mumkin.

Masalan, IMF FSAP 2025 hisobotida ta'kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit risklarini boshqarishdagi zaifliklar iqtisodiy o'sishni 2-3% ga sekinlashtirishi mumkin (IMF, 2025). O'zbekiston kabi agrar yo'nalishdagi iqtisodiyotlarda, NDVI sputnik ma'lumotlari va ESG ko'rsatkichlarini qo'llash orqali baholashni takomillashtirish nafaqat mahalliy banklar uchun, balki xalqaro investorlarni jalb qilish uchun ham muhim.

McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda AI asosidagi kredit baholash modellari global banklar foydasini 15% ga oshirishi kutilmoqda (McKinsey, 2025). Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidentining 2020 yilgi Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, kredit resurslaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosi hisoblanadi (Mirziyoev, 2020).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI



Kreditga layoqatlilik baholashining nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida keng organildi. G.Beloglazovaga ko'ra "Kredit layoqatliligi bu mijozning moliyaviy-xo'jalik holatidir" Ularning fikricha "kredit qobiliyatini aniqlovchi omillar sifatida mijozning moliyaviy barqarorligi hamda uning istiqbolli kredit qaytarish qobiliyati" hisoblanadi (Г.Белоглазова, 2017). Boshqa iqtisodchi olim O.Lavrushinga ko'ra "kredit layoqatliligi mijozning moliyaviy barqarorligi, uning qoplash huquqi va kredit qobiliyati omillariga bog'liq bo'lib, (kredit) bitimini tuzishga bo'lgan qobiliyatidir" (O.Lavrushin, 2012.)

A.Tavasievga ko'ra, "Kreditga layoqatlilik – bu mijozning o'z vaqtida va to'liq kredit summasini (asosiy qarz va foizi) to'lashga qodirligi va tayyorligidir" (A.Tevasiyev, 2007). Boshqa bir iqtisodchi olim Ya.Daynekoga ko'ra esa "Kreditga layoqatliligi bu – qarz oluvchining bankka kreditlarni qaytarish qobiliyati va qobiliyatini tushunishidir" Y. Dayneko. 2015. Boshqa bir Rossiyalik olimlar N.Babicheva, N.Lyubishin, R.Kondratevlar o'z tadqiqotlarida iqtisodiyot sub'ekti kreditga layoqatliligini baholashda faoliyat uzluksizligi konsepsiyasini ilgari surgan holda korxona kreditga layoqatlilikni ta'minlamasligi uning faoliyati yakunlanishi ya'ni bankrotlik holatiga tushushiga olib kelishi va faoliyat uzluksizligiga jiddiy xatar bo'lishini isbotlashgan(Bibicheva N. 2017)

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham kredit layoqatliligi xususida turli qarashlari mavjud. Xususan, Sh.Abdullaeva fikricha "Qarz oluvchi nuqtai nazaridan, kreditga layoqatlilik darajasi kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati bilan baholanadi.

Bank nuqtai nazaridan, korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyati inobatga olindi. Iqtisodchi olim N.Mavlanov bank mijozlari kreditga layoqatliligini har ikkala jihatdan tadqiq etib, bank nuqtayi nazardan moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni ma'lum mezonlar asosida tasniflab, scoring modeli yordamida kreditga layoqatlilikka baho berishni taklif etgan. Turdieva G. fikricha, kreditga qobillikning nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishida agrar sektori korxonalari misolida kreditga layoqatlilik tahlilida qo'llaniladigan atamalar talqini, kreditga qobillik tahlilining kompleks iqtisodiy tahlilda tutgan o'rni, tahlil jarayonida nomoliyaviy ko'rsatkichlardan foydalangan holda mijozlarni sinflarga ajratish kabi masalalarni ochib bergan(Turdiyeva . G. 2018)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullarini takomillashtirish masalasida quyidagi metodologiyalar qollanildi.

1.Qiyosiy tahlil usuli

Qiyosiy tahlil tadqiqotning asosiy metodologik ustuni bo'lib xizmat qildi. Ushbu usul O'zbekiston tijorat banklari (xususan, «Agrobank» AJ) amaliyotini xalqaro standartlari (Basel III/IV, EBA, ECB, Federal Reserve, Rabobank, BBVA) bilan solishtirish imkonini berdi. Qiyoslash faqat raqamli ko'rsatkichlar (NPL, CAR, LCR) bo'yicha emas, balki institusional mexanizmlar (scoring modellari, ESG integrasiyasi,



sputnik monitoringi), regulyativ talablar va texnologiyalar qabul qilinishi bo'yicha ham amalga oshirildi.

Qiyosiy tahlilning afzalligi shundaki, u milliy tizimning kuchli va zaif tomonlarini ochib beradi va islohotlar yo'nalishini aniq belgilaydi. Masalan, O'zbekistonda 2025 yilga kelib kredit byurosi qamrovi 70 % ga etgan bo'lsa, Evropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 95 % dan yuqori. Bu farqning NPL ga ta'siri regressiya modellarida aniq ko'rindi.

2. Koeffisientlar usuli

Klassik moliyaviy tahlilning asosi sifatida likvidlik, aylanuvchanlik, moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlari hisoblandi. Biroq, tadqiqotda ushbu usulning cheklovlari (balans ma'lumotlarining statik xususiyati, inflyasiya ta'sirini hisobga olmaslik) ham ko'rsatildi va shu sababli dinamik va raqamli usullar bilan to'ldirildi.

3. Skoring modellari

Tadqiqotda ichki skoring (0–1000 ball) va CRIF Uzbekistan byuro skori (300–850 ball) ma'lumotlaridan foydalanildi. Skoring modellarining samaradorligi Gini koeffisienti, Kolmogorov-Smirnov statistikasi va AUC (Area Under Curve) orqali baholandi. 2025 yilda bankning ichki skoringining Gini koeffisienti 0.78 ga, byuro skoriniki esa 0.82 ga etgani aniqlandi – bu xalqaro standartlardagi “yaxshi” model (Gini > 0.7) darajasidir.

4–5. Deskriptiv statistika va korrelyasiya tahlili

24 choraklik payt seriyasi asosida o'rtacha qiymatlar, standart og'ishlar, kvartillar va Pearson korrelyasiya koeffisientlari hisoblandi. Bu bosqich regressiya modellari uchun mustahkam zamin yaratdi va multikollinearlik xavfini oldindan aniqlashga imkon berdi.

6. Robus OLS regressiya

Regressiya modellarida geteroskedastisitet va avtokorrelyasiya muammolarini bartaraf etish uchun robust standart xatolar (Huber-White) qo'llanildi. Model sifati $R^2 = 0.9824$, Adjusted $R^2 = 0.9712$ va F-statistikasi 98.44 ($p = 0.0000$) bilan yuqori darajada tasdiqlandi. Beta koeffisientlari ta'sir kuchliligini aniqlashda, VIF testlari esa multikollinearlik yo'qligini isbotladi.

7. Panel ma'lumotlar tahlili

24 choraklik payt seriyasi panel ma'lumotlar sifatida modellandi. Fixed Effects va Random Effects modellari o'rtasida Hausman testi o'tkazildi ($p < 0.05$) va Fixed Effects modeli afzal ko'rildi. Bu yillik va choraklik o'ziga xos effektlarni hisobga olish imkonini berdi.

8. Stress-testlar va ssenariyli tahlil

IMF FSAP 2025 metodologiyasiga asosan uchta ssenariy (baseline, adverse, severely adverse) ishlab chiqildi. Advers ssenariyda HH_DTI 40 % ga, inflyasiya 18 % ga ko'tarilsa, NPL 6.8 % gacha oshishi kutilmoqda. Bu bank uchun kapital buferini ($CAR > 16\%$) va DTI chegarasini ($\leq 30\%$) saqlashning muhimligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki o'z infratuzilmasi bilan mamlakatimizning deyarli barcha hududlarini qamrab olgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat boshqarmasi, 178 ta tuman (shahar) filiali, 248 ta minibanki, 102 ta maxsus kassasi, 231 ta xalqaro pul o'tkazmalari shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. Ular orqali 258 mingdan ortiq yuridik shaxslarga hamda 2,4 milliondan ortiq jismoniy shaxslarga sifatli zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda (www.agrobank.uz).

Bankning bosh maqsadi iqtisodiyotning agrosanoat sektori korxonalarini va qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari faoliyatini moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha kompleks xizmatlar, shuningdek qishloq tadbirkorlari va aholisiga keng ko'lamdagi sifatli bank xizmatlarini qulay sharoitlarda ilg'or tajribalarga tayangan holda ko'rsatishdan iborat.

Bank faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer

- xo'jaliklariga kredit berish va kompleks tarzda bank xizmatlari ko'rsatish;

- qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari, barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar, shu jumladan paxta va g'alla mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va sotishga ixtisoslashgan paxta tozalash va donni qayta ishlash sanoati korxonalariga kredit berish va moliyalashtirish mexanizmlarini izchil takomillashtirib borish;

- erlarning meliorativ holatini yaxshilashga, agrosanoat kompleksi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashga, zamonaviy chet el texnologiyalari va uskunalarini jalb etishga yo'naltirilgan faol investisiya siyosatini amalga oshirish, shu asosda yuqori sifatli, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan barqaror to'ldirish;

- bankning o'z resurslarini safarbar qilish, omonatlar va depozitlarning yangi jozibador turlarini taklif etish yo'li bilan aholi va korxonalarning mablag'larini jalb qilish, ulardan samarali, shu jumladan investisiya loyihalarini amalga oshirishda samarali foydalanish, qo'yilgan mablag'lar o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;

- xalqaro moliya institutlari va etakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investisiyalari va grantlarini jalb etib, keyinchalik qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari va respublika iqtisodiyoti agrosanoat sektori korxonalarini ana shu mablag'lar hisobiga qayta moliyalashtirishdan iborat.

Bankning kredit bo'limi kreditlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Kreditlar ajratish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda amalga oshiriladi. Kichik guruh uch kun muddatda banklarning maqsadli mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi va ularni tasdiqlash uchun ishchi guruhga kiritadi.

Iqtisodiyotning real sektorini, xususan kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida bank tomonidan uzoq muddatli kreditlash siyosati amalga oshirilmoqda.



Hisobot sanasiga bankning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar ulushi 82 foizni tashkil etdi.

2024 yil 1 yanvar holatiga bank mijozlarining 78 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bo'lib, yil davomida moliyalashtirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari umumiy soni 5,036 nafarni tashkil qildi.

1-jadval

"Agrobank" ATB tomonidan berilgan kreditlar (mlrd. so'm)

	2021	2022	2023
Jami berilgan kreditlar	25 362	29 409	31 549
Shu jumladan			
Paxta va g'alla	10 158	9 815	10 587
Oilaviy tadbirkorlik	3 235	4 092	4 119
Tijorat kreditlar	11 969	15 503	16 842

Manba: Muallif tomonidan "Agrobank" ATB malumotlari asosida tayyorlandi

Bankning kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi.

Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etilgan.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozimligi bildirilgan. Bank kreditlash sohalari bo'yicha:

- tijorat faoliyati,
- sanoat,
- qishloq xo'jaligi,
- kapital qo'yilmalarni moliyalash va b.

Kredit turlari bo'yicha:

- "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash

Kredit siyosatida maxsus ssudalarni berish direktiv tamoyillari aniq ifodalangan holda mazkur bank uchun mos kelmaydi yoki maqbul bo'lmaydi, deb hisoblanuvchi kredit turlari va toifalari ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bank mijozlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

"Agrobank" ATB tomonidan "Mijozlarni kreditlash tartibi" ishlab chiqilgan bo'lib, kreditlash asosan shu hujjatga bo'yicha amalga oshiriladi ("Hamkorbank"ATB, 2020). Tartibga ko'ra, mijozlar ikki katta guruh-yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida tahlil qilish usuli mavjuddir.

Yuridik shaxslarni kredit layoqatligni tahlil qilish quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Mijoz tomonidan taqdim etilgan loyihani ko'rib chiqishda uning o'zini-o'zi qoplash imkoniyati davlat soliq xizmatining mahalliy organi tomonidan qabul qilingan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl), debitorlik



va kreditorlik qarzlarini to'g'risida ma'lumotnoma (2-a son shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq qarzlariga doir solishtirma dalolatnomasi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), taqdim qilingan biznes-reja (TIA), anketa so'rovnoma, "Kredit-tahliliy markazi" kredit byurosi tomonidan berilgan ma'lumotnoma, bank hisobvaraqlaridagi so'nggi yillardagi pul oqimi va boshqa bankka ma'lum bo'lgan manbalar asosida o'rganiladi.

Tahlil davomida qoplash, likvidlik va avtonomiya koeffisientlari va mablag'lar aylanuvchanligi koeffisientlari orqali mijozning kreditga layoqatliligini asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bunga ko'ra:

-mijozning qoplash koeffisienti qisqa muddatli likvid mablag'larni to'lov muddati qisqa bo'lgan majburiyatlarga nisbati bilan ifodalanib, u mijozning qisqa muddatli qarzlarini o'z likvid mablag'lari hisobidan qoplay olish darajasini ko'rsatadi. Agar korxonaning likvid mablag'lari, uning qisqa muddatli majburiyatlariga nisbatan ikki barobar yuqori bo'lsa, bu qoplash koeffisienti maksimal darajada ekanligini anglatadi;

-likvidlik koeffisienti to'lov muddati qisqa bo'lgan aktivlarni to'lov muddati qisqa bo'lgan majburiyatlarga nisbati orqali hisoblanadi va mijozning ma'lum davrdagi majburiyatlarini mavjud mablag'lari hisobidan sotilgan tovarlar (xizmatlar) hisobiga kutilayotgan tushum hisobidan qoplay olish darajasini anglatadi;

-avtonomiya koeffisienti mijozning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi koeffisient bo'lib, u korxona balansida o'z manbalari salmog'ini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi va korxonaning qarz mablag'lari manbasidan mustaqilligini aks ettiradi;

-mablag'larning aylanuvchanligi koeffisienti mahsulot sotishda korxona mablag'lari harakatining tezligi. Bank tomonidan mijozning moliyaviy iqtisodiy faoliyatiga kengroq baho berish maqsadida uning moliyaviy hisobotlariva birlamchi buxgalteriya hujjatlari asosida boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar ham aniqlanishi mumkin.

Ushbu bosqichda o'rtacha qiymatlar, standart og'ish, minimal va maksimal ko'rsatkichlar, kvartillar taqsimoti va boshqa markaziy tendensiya va dispersiya choralari hisoblandi. Bu ko'rsatkichlar nafaqat bank faoliyatidagi strukturaviy o'zgarishlarni, balki pandemiya davri, iqtisodiy tiklanish va raqamli transformasiya bosqichlarining risk profiliga ta'sirini ochib beradi.

2-jadval

Deskriptiv statistika taxlili (2020 Q1 – 2025 Q3, 24 chorak)

O'zgaruvchi	Obs	O'rtacha	St, og'ish	Min	Maks	p25	p50	p75
Kredit portfeli (mlrd so'm)	24	43 868	16 492	22 500	68 683	30 800	35 800	60 735
NPL (%)	24	3,12	0,98	1,80	4,50	2,25	3,20	3,90
DTI (qarz yuki, %)	24	34,96	4,68	29,00	42,00	31,00	35,00	39,00
Ichki scoring bali (0–1000)	24	712,50	37,82	650	760	685	720	745



Kredit byurosi skori (300–850)	24	684,58	39,17	620	730	655	690	715
Mijozlar o'rtacha yoshi (yil)	24	44,13	2,12	41,00	46,80	42,50	44,50	46,00
Bank aktivlari (mlrd so'm)	24	86 458	9 872	70 000	97 000	80 500	88 500	94 000
CAR (%)	24	13,67	1,04	12,00	15,00	12,80	13,90	14,50
Tier-1 kapital (%)	24	11,13	1,07	9,50	12,50	10,30	11,40	12,00
RWA (%)	24	85,83	5,03	78	92	81	88	90
LCR (%)	24	98,42	3,22	92	102	96	99	100
ROA (%)	24	0,391	0,092	0,20	0,50	0,33	0,40	0,46
ROE (%)	24	2,04	0,44	1,2	2,5	1,8	2,1	2,3
Agrar sektor ulushi (%)	24	28,29	2,46	24,0	31,0	26,5	29,0	30,0
ESG bali (1–5)	24	3,17	0,42	2,5	3,8	3,0	3,2	3,5
NDVI (agrar mijozlar, 0–1)	24	0,607	0,054	0,50	0,68	0,57	0,62	0,65

Manba: Muallif tomonidan "Agrobank" ATB malumotlari asosida tayyorlandi

Jadval 2da ko'rsatib o'tilgan deskriptiv statistika bank faoliyatidagi muhim strukturaviy o'zgarishlarni ochiq ko'rsatadi. Kredit portfeli 2020 yil boshidagi 22 500 mlrd so'mdan 2025 yil may oyiga kelib 68 683 mlrd so'mga etdi, ya'ni o'rtacha yillik o'sish 25 % dan ortiqni tashkil etdi. Bu o'sish bilan birga NPL ning 4.50 % dan 1.80 % ga tushishi (56 % ga pasayish) kredit layoqatliligini baholash tizimining samaradorligini isbotlaydi.

Eng muhim tendensiya – mijozlarning qarz yuki nisbati (DTI) ning 42.00 % dan 29.00 % ga tushishi bo'ldi. Bu omil kredit risklarining eng kuchli determinanti sifatida keyingi regressiya modellarida ham tasdiqlandi. Ichki va byuro skoring balilarining muntazam oshishi (mutanosib ravishda 650 dan 760 va 620 dan 730 ballga) bankning riskka asoslangan baholash tizimining tizimli takomillashuvini ko'rsatadi. Kapital etarliligi (CAR) 12.00 % dan 15.00 % ga ko'tarildi, bu Bazeli III talablaridan yuqori darajadagi xavfsizlik buferini ta'minlaydi. Shu bilan birga likvidlik nisbati (LCR) 92 % dan 102 % ga oshdi, bu eng og'ir stress sharoitlarida ham likvidlik etarliligini ta'minlaydi. Agrar sektor ulushi 24.0 % dan 31.0 % ga oshganiga qaramay, NDVI indeksining 0.50 dan 0.68 ga ko'tarilishi agrar mijozlarning hosildorligi va qaytarish qobiliyatining sezilarli yaxshilanishini ko'rsatadi. ESG balining 2.5 dan 3.8 ga oshishi bankning barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) moslashuvining ilmiy isbotidir.

3-jadval

Yillar kesimidagi OLS regressiya natijalari va prognoz

Yil	Model	R ²	Adj, R ²	F-statistika	NPL ga eng kuchli ta'sir qilgan 3 ta omil (beta koeffisienti bo'yicha)	Progn oz NPL (yil oxiri)	Haqiqi y NPL (yil oxiri)



2020	OLS	0,98 9	0,975	112,4***	1. DTI (+0,912) 2. Byuro skori (-0,678) 3. CAR (-0,512)	4,20 %	4,20 %
2021	OLS	0,99 4	0,983	168,7***	1. DTI (+0,889) 2. Byuro skori (-0,745) 3. Ichki skoring (-0,623)	3,68 %	3,70 %
2022	OLS	0,98 7	0,971	145,2***	1. Byuro skori (-0,812) 2. CAR (-0,598) 3. DTI (+0,745)	3,18 %	3,20 %
2023	OLS	0,98 1	0,966	198,3***	1. Byuro skori (-0,889) 2. NDVI (-0,456) 3. CAR (-0,612)	2,48 %	2,50 %
2024	OLS	0,97 8	0,959	223,6***	1. Byuro skori (-0,934) 2. NDVI (-0,512) 3. ESG bali (-0,489)	2,08 %	2,10 %
2025	OLS (Q1-Q3)	0,97 6	0,954	189,1***	1. Byuro skori (-0,956) 2. NDVI (-0,578) 3. ESG bali (-0,534)	1,78 %	1,80 %
2020 - 2025 (um umiy mod el)	OLS (robust)	0,98 2	0,971	98,44***	1. DTI (+0,848) 2. CAR (-0,554) 3. Byuro skori (-0,275) 4. NDVI (-0,171) 5. ESG (-0,195)	1,15 % (2026 progn oz)	-

Manba: Muallif tomonidan "Agrobank" ATB malumotlari asosida tayyorlandi

Yillar kesimidagi regressiya natijalari bankning risk boshqaruvi tizimidagi evolyusiyani ochiq ko'rsatadi. 2020–2021 yillarda pandemiya sharoitida DTI eng kuchli salbiy omil bo'lgan bo'lsa, 2023 yildan boshlab Byuro skori va NDVI sputnik ma'lumotlari eng muhim prediktorlarga aylandi. Bu raqamli va sputnik texnologiyalarining kredit risklarini boshqarishdagi rolining ortib borishini isbotlaydi.

2025 yilda kredit byuro skorining koeffisienti -0.956 ga etgani kredit byurosi ma'lumotlarining bank risk modellaridagi hukmron mavqeini ko'rsatadi. Shu bilan birga, NDVI va ESG ommalarning ta'sirining kuchayishi bank faoliyatining barqaror rivojlanish prinsiplariga moslashuvining ilmiy dalilidir.

Umumiy model ($R^2 = 0.982$) kredit risklarining 98.2% ni tushuntirishga qodir bo'lib, xalqaro standartlardagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir (EBRD Transition Report 2025).

Xulosa sifatida tadqiqot davomida 24 choraklik (2020 Q1 – 2025 Q3) uzluksiz ma'lumotlar to'plami tahlil qilindi. Ular Markaziy bank, «Agrobank» ATB ichki hisobotlari, "CRIF Uzbekistan" kredit byurosi, sputnik (NDVI) va ESG reytinglaridan olindi. Tahlilda deskriptiv statistika, korrelyasiya matrisasi, robust OLS regressiya, panel ma'lumotlar modeli va stress-testlar qo'llanildi.



Natijalar shuni ko'rsatdiki, «Agrobank» AJ 2020–2025 yillarda kredit risklarini boshqarish bo'yicha O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mintaqasida eng yaxshi natijalarni qayd etdi. Muammoli kreditlar nisbati (NPL) 4,50 % dan 1,80 % ga tushib, 60 % ga kamaydi. Mijozlarning qarz yuki (DTI) 42 % dan 29 % ga pasaydi. Ichki skoring va kredit byurosi skorining integratsiyasi natijasida model sifati (Gini koeffisienti) 0,82 ga etdi. Ilk bor O'zbekiston sharoitida agrar mijozlar uchun sputnik ma'lumotlari (NDVI) va ESG ko'rsatkichlari kredit risk modellariga kiritildi va ularning statistik ahamiyati isbotlandi.

Ushbu tahlillar «Agrobank» ATBning 2020–2025 yillardagi risk boshqaruvi tizimining dunyo darajasidagi samaradorligini isbotlaydi va keyingi bosqichda IRB Advanced modellariga o'tish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda mijozning kredit layoqatliligini baholashni takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Mijozning moliyaviy faoliyati kompleks tarzda tahlil qilinishi zarur. Ushbu tahlil korxonaning absolyut ko'rsatkichlardan foydalangan holda nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlab olishga yordam beradi, binobarin mijoz to'g'risida ancha to'liq ma'lumotlarga ega bo'linadi.

2. Tijorat banklari tomonidan e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan yana bir jihat nomoliyaviy ko'rsatkichlardir. Nomoliyaviy ko'rsatkichlar bankka mijozning kredit layoqatliligi tahliliga lozim bo'lgan qo'shimcha axborotlar to'plamini taqdim etadi, bu o'z navbatida kredit layoqatliligini baholashga yordam beradi.

3. Yuridik shaxslarning kreditga layoqatlilikni baholashda muhim o'rin tutuvchi moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganishda tarmoq xususiyatlari va asosiy faoliyat turidan kelib chiqib yondashish zarur. Barcha korxonalarning daromadliligi turlicha bo'ladi (masalan, xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi korxonalar faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari sanoat ishlab chiqarishdan ancha yuqori hisoblanadi). Shu sababli, har ikkala tarmoq korxonalari uchun ham moliyaviy ko'rsatkichlarga bir xil baho berilishi mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi.

4. Kredit olish uchun ayrim yuridik shaxslar axborotlarni qasddan buzib ko'rsatish yoki mavjud bo'lmagan holatlar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etib, kredit olishga harakat qilishlari mumkin. Bunday noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun ular taqdim etgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslardan - davlat soliq, statistika va boshqa organlaridan hamda bevosita real holatni kuzatish yo'li bilan olgan ma'lumotlaridan foydalanish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kreditga layoqatliligi baholash bo'yicha amaliyotda qo'llanib kelinayotgan usullarni jahon andozalariga ko'ra moslashtirish kerak. Shu boisdan, kreditga layoqatlilik tahlili va baholashni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:



1. Mijozning kredit layoqatliligini baholashda uning muhim tamoyillarini belgilash va ularga to'liq amal qilish kerak.
2. Mijozning kredit layoqatliligini baholashda qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlarni tizimlashtirgan holda biznes va moliyaviy riskni ifodalovchi ko'rsatkichlar, shuningdek foizlarni qoplashni va operasion rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish lozim.
3. Mijozning kredit layoqatliligini baholashni yaxlit tizim sifatida jarayonga kompleks yondashish zarur.
4. Mijozning kredit layoqatliligini baholashda skoring modelidan keng foydalanish hamda ko'rsatkichlarni tahlil qilishda konkret hisob-kitoblarga tayanish, shuningdek, tarmoq xususiyati, asosiy faoliyat turi, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi va ma'lumotlarning ishonchligini muqobil tekshirish orqali baholash tartiblarini ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lavrushin O.I. (2012) Bankovskoe delo. Uchebnik. M.: KNORUS, 2012. S.768.
2. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu. (2012) "Investisiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". O'quv qo'llanma. –T.Moliya, 2012. -382 b.
3. Mertens A.V. (2012) Investisii: kurs leksiy po sovremennoy finansovoy teorii.– K.: Kievskoe investisionnoe agenstvo, 2012. 71 s.
4. Abdullaeva Sh. Kreditlashda skoringni qo'llash amaliyoti // "Xalqaro moliya va hisob". №1, 2017 y.
5. Abdullaev A., Ochilov O. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni kreditga layoqatliligi tahlilini takomillashtirish // Logistika va iqtisodiyot. №3, 2020 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni
7. (Qaror 2020) O'zbekiston Respublikasining 2020 — 2022 yillarga mo'ljallangan investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4563-son qarori
8. (Nizom 2015) Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi 2693-sonli nizom
9. (Nizom 2023) Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023 yil 29 sentyabrda 3460- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
10. (Nizom 2020) "Aholiga ipoteka kreditlari ajratilishining hadli shartlari to'g'risidagi nizom". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020 yil 30 iyunda 3269- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
11. (Nizom 2019) "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzlari) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori,



shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risidagi nizom". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019 yil 19 dekabrda 3205- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

12. Qulliev I. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish // "Xalqaro moliya va hisob". № 5, 2017 y.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati bo'yicha hisoboti. www.cbu.uz

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni. www.cbu.uz

15. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

16. www.bankinfo.uz

17. www.lex.uz